


100. Sonni 4 ga bo'lish

Yondosh mavzu:
mehnat, hashar.

Bo'linuvchi, bo'luvchi,
bo'linma.



Bo'sh kataklarni to'ldiring.



1. Ishni tezroq yakunlash uchun qo'shnilar hasharda 4 kishidan iborat guruhlariga bo'linishdi. 12 kishidan nechta guruh hosil bo'ladi? Ushbu ifodalar nimani anglatadi?



$12 : 4$
 $4 \cdot 3$
 $3 \cdot 4$
 $12 : 3$



2. Amallar va ularning komponentlari nomlarini ayting. Hisoblashlar to'g'ri bajarilganmi yoki yo'qmi? Tekshirib ko'ring.

$$3 \cdot 9 = 27$$

$$5 \cdot 4 = 24$$

$$21 : 7 = 3$$

$$18 : 2 = 6$$



3. O'zgaruvchilar o'rniga shunday qiymatlarni qo'yingki, natijada tengliklar to'g'ri bo'lsin.

$$x \cdot 4 = 28$$

$$6 \cdot y = 18$$

$$z \cdot 7 = 21$$

$$28 : 4 = x$$

$$y = 18 : 6$$

$$21 : 7 = z$$



Ko'paytirish bilan bo'lish orasidagi bog'lanish

Noma'lum ko'paytuvchini topish uchun ko'paytmani ma'lum ko'paytuvchiga bo'lish kerak.



4. Hisoblang. Qavslar ichidagi amallar birinchi navbatda bajariladi.

$$(78 - 46) : 8$$

$$25 - (16 : 8)$$

$$35 + (18 : 6)$$



5. O'qish o'quvchi uchun birinchi navbatdagi vazifa. Uch hafta kasal bo'lgan o'quvchi necha soat darsni o'tkazib yuboradi?

Dushanba	Seshanba	Chorshanba	Payshanba	Juma
4 ta dars	4 ta dars	5 ta dars	5 ta dars	5 ta dars



6. Ifodalar tuzing va ularning qiymatlarini hisoblang.

- a) 276 va 352 sonlari yig'indisidan 128 sonini ayirish.
- b) 800 sonidan 652 va 108 sonlari ayirmasini ayirish.
- d) 30 va 10 sonlari yig'indisini 4 ga bo'lish.
- e) 27 va 11 sonlari ayirmasini 4 ga bo'lish.



7. Ushbu to'g'ri to'rtburchaklarning perimetrlari va yuzlarini toping.

kvadrat
4 cm



to'g'ri to'rtburchak
3 cm
8 cm



8. Hisoblang. Qavslar ichidagi amallar birinchi navbatda bajariladi.

N $(27 : 3) + 49$

E $(60 - 28) : 4$

G' $(36 : 4) + 15$

S $(50 - 26) : 8$

O $22 + (16 : 4)$

U $(17 + 3) : 4$

T $42 - (24 : 6)$

A $(18 + 22) : 10$

M $50 - (21 : 3)$

H $(45 - 15) : 3$

L $71 + (15 : 3)$

I $(36 - 18) : 3$

Bu yerda qanday maqol yashiringan?

6 58 3 26 58

43 8 10 58 4 38 76 4

5 76 5 24